

Ichimlik suvining kamayish sabablar va uni oldini olish tamoyillari

Begmatova Shaxzoda Qahramon qiz,

O'zbekiston Savdo-Sanoat palatasi bosh mutaxassisi,

shaxzoda.begmatova.92@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda dolzarb muammoga aylanayotgan ichimlik suvi tanqisligi muammosi haqida so'z boradi. Yurtimizda va butun dunyoda hozirda ushbu masala global muammo sifatida qaralmoqda. Bu muammoning yechimi sifatida aholidan bir qancha tizimli ishlar bajarilishi talab etilmoqda.

Kalit so'zlar: Ichimlik suvi, suv manbalari, aholi ko'rsatkichlari, suv tanqis hududlar.

Annotation: this article will talk about the problem of drinking water, which is now becoming an urgent problem. In our country and around the world, this issue is now considered a global problem. As a solution to this problem, the population is required to perform a number of systematic work.

Keywords: drinking water, water sources, population indicators, water scarce areas.

Аннотация: В этой статье рассматривается проблема питьевой воды, которая в настоящее время становится актуальной проблемой. В нашей стране и во всем мире сейчас этот вопрос рассматривается как глобальная проблема. Решение этой проблемы требует от населения проведения ряда системных работ.

Ключевые слова: питьевая вода, источники воды, показатели населения, районы с дефицитом воды.

Kirish

Boshqa davlatlarda bo'lgani singari yurtimizda ham ichimlik suvi tanqisligi ko'plab hududlarda uchramoqda. Ba'zi hududlarda haligacha bu muammo o'z yechimi topganicha yo'q. Nima sababdan ichimlik suvi zaxirasi tugab bormoqda? Buni qanday qilib to'xtatib qolish mumkin? Shu kabi savollar butun dunyo aholisini o'ygatdirmoqda. Ham yurtlarimizdan hozirgi kunda bir qancha qoidalarga rioya qilgan holda ichimlik suvlarini tejash kerakligi aytilib o'tilmoqda.

Adabiyotlar Tahlili Va Metodologiyasi

Ichimlik suvi muammosi bo'yicha quyidagi aniq faktlarni keltirishimiz mumkin:

2021-yilda 2 milliarddan ortiq odam suv tanqisligi bo'lgan mamlakatlarda iste'qomat qilgan, bu iqlim o'zgarishi va aholi sonining ko'payishi natijasida ba'zi mintaqalarda kuchayishi kutilmoqda.

2022-yilda dunyo miqyosida kamida 1,7 milliard kishi najas bilan ifloslangan ichimlik suvi manbasidan foydalanadi. Najas bilan ifloslanish natijasida ichimlik suvining mikrobial ifloslanishi ichimlik suvi xavfsizligi uchun eng katta xavf tug'diradi.


Xavfsiz va yetarli darajadagi toza suv gigiyena amaliyotini osonlashtiradi, bu nafaqat diareya kasalliklari, balki o'tkir respiratorli infeksiyalar va ko'plab tropik kasalliklarning oldini olishning asosiy chorasidir.

Mikrobiologik ifloslangan ichimlik suvi diareya, vabo, dizenteriya, TIF va poliomielit kabi kasalliklarni yuqtirishi mumkin va har yili taxminan 505 000 aholi diareya sabab o'lishi taxmin qilinmoqda.

2022-yilda dunyo aholisining 73 foizi (6 milliard kishi) xavfsiz tozalangan ichimlik suvi xizmatidan foydalangan.[1]

Muhokamarlar Va Natijalar

Xavfsiz va toza ichimlik suvi, maishiy foydalanish, oziq-ovqat ishlab chiqarish yoki dam olish maqsadida ishlatiladimi, aholi salomatligi uchun muhimdir. Yaxshilangan suv



ta'minoti va kanalizatsiya va suv resurslarini yaxshiroq boshqarish mamlakatlarning iqtisodiy o'sishini kuchaytirishi va qashshoqlikni kamaytirishga katta hissa qo'shishi mumkin.

Darhaqiqat, global iqlim o'zgarishlari dunyo bo'ylab qurg'oqchilik, atmosfera havosining ifloslanishi kabi qator ekologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu holat o'z navbatida, barcha mintaqalar, shu jumladan, Markaziy Osiyoda ham muzliklarning keskin qisqarib ketishi, demakki, daryo havzalariga salbiy ta'sir ko'rsatyapti. Mutaxassislar prognozlariga ko'ra, 2050-yilga kelib Sirdaryoda suv hajmi 5 foiz, Amudaryoda esa 15 foizgacha kamayishi mumkin.

Bu masalaning bir jihati. Boshqa tomondan esa, suv hajmi kamayib borishiga nomutanosib ravishda aholi soni o'sishi hamda ishlab chiqarish sanoati rivoji hisobiga suvga talab muttasil oshib boradi. Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, suv tanqisligi va u keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan muammolar ko'lami yildan-yilga kengayib boraveradi.

Xo'sh, bunday vaziyatda nima qilmoq kerak? Sayyoramiz bo'yicha qariyb 1,1 milliard kishi turli darajadagi suv tanqisligidan aziyat chekayotgan bir paytda, ushbu muammoga eng samarali yechim – tejamkorlik hisoblanadi. Negaki, birinchidan, suv zaxiralarini oshirish, ya'ni tog'lardagi muzliklar hajmini kengaytirishning imkoni yo'q. Borini asrab qolish esa ekologik barqarorlikka bog'liq. Bu, o'z navbatida, ko'p vaqt – uzoq yillar talab etadigan jarayon.

Ikkinchidan, suv tanqisligi muammosi bilan yuzma-yuz turibmiz, lekin hali ham obi hayotni isrof qilishda davom etyapmiz. Yo'q, deysizmi? Unda adashasiz, yon-atrofingizga, jilla qursa, yaqinlaringizning suvga munosabatiga nazar soling: qanchadan-qancha mehnat, resurs va mablag' evaziga necha bosqichda tozalanib, xonadonimizga olib kelingan toza ichimlik suvini salqinlik uchun hovliga to yer loy bo'lgunicha sepamiz, mashinamizni yuvamiz, tishimizni tozalab bo'lgunicha jumrakni yopmaymiz... To'g'ri, bu bilan muammo tugal hal bo'lmas, lekin hammamiz har ishimizda, har bir sohada uni tejasak, tanqislikning oldini olish mumkin. Axir donolarimiz "Toma-toma ko'l bo'lur", deb bejiz aytishmagan.

Gap suvdan samarali foydalanish, uni tejash haqida borar ekan, bu borada eng avvalo, e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan tarmoq, bu – qishloq xo'jaligi. Negaki, dunyo, shu jumladan, O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarida ishlatilayotgan suv resurslarining eng katta qismi agrar soha hissasiga to'g'ri keladi – 89,7 foiz. 5 foizi esa kommunal xo'jalik, 2 foizi sanoat tarmoqlari, qolgan qismi boshqa tarmoqlar hissasiga to'g'ri keladi.

Shu bois, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suv tejovchi texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, ariq va kanallarni betonlashtirish, suv agregatlarini modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.


Poytaxtimizda Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan tashkil etilgan "Kelajak uchun suvni asrang" mavzuidagi tadbirda ham suv tejamkorligiga erishishning ahamiyati to'g'risida o'zaro fikr almashilib, bu borada amalga oshirilayotgan ishlar sarhisob qilindi.

Tegishli vazirlik va idoralar, jurnalist va blogerlar, suv tejovchi texnologiyalar butlovchi qismlarini ishlab chiqaruvchi va pudratchi korxonalar, klaster va fermer xo'jaliklari vakillari ishtirok etgan tadbirda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish uchun kredit olish shartlari, "Suvchilar maktabi" faoliyati haqida atroflicha ma'lumot berildi.

Xalqaro ekspertlarning fikricha, O'zbekiston nisbatan qisqa vaqt ichida sug'orish suvidan tejamkorlik bilan foydalanish borasida sezilarli natijalarga erishyapti.

Yaqinda Euronews xorijiy ommaviy axborot vositasi yurtimizda suv tejamkorligi bo'yicha amalga oshirilayotgan samarali loyihalar haqida maqola chop etdi.

Maqolada qayd etilishicha, suv tanqisligi kuzatilayotgan yerlarda amalga oshirilgan yirik infratuzilma loyihasi suv isrofini kamaytirish orqali qishloq xo'jaligida sug'orishni yaxshilash, shuningdek, elektr energiyasi iste'molini kamaytirish va ekinlar hosildorligini oshirish imkonini berdi.



“Janubiy Qoraqalpog‘istonda suv resurslarini boshqarishni yaxshilash” loyihasi doirasida rekonstruksiya qilingan “Bo‘ston” kanali suv yo‘qotilishini keskin kamaytirishga zamin yaratmoqda.

– Qishloq xo‘jaligi sohasida suvdan samarali foydalanishga erishishda “Suvchilar maktabi” tashkil etilgani ayni muddao bo‘ldi, – deydi Suv loyihalari markazi direktori o‘rinbosari Muzaffar Hayitboyev. – Mazkur o‘quv kursi faoliyati Prezidentimiz tashabbusi bilan Suv xo‘jaligi vazirligi, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti va “Agrobank” ATB hamkorligida yo‘lga qo‘yilgan. Fermer xo‘jaliklari rahbar va suvchilari, suv xo‘jaligi xodimlari bugungi kunda sohada qo‘llanilayotgan innovatsion texnologiyalar, rivojlangan xorijiy mamlakatlar amaliyotiga joriy etilayotgan yangi bilim va ko‘nikmalarni egallagan holda, o‘z faoliyatini takomillashtirib, suvdan samarali foydalanish orqali yuqori hosildorlikka erishishi o‘quv kursining asosiy maqsadi hisoblanadi.[2]

E’tiborli jihati, darslarda ro‘yxatdan o‘tib, tekin ishtirok etish mumkin. Darslar mahalliy va turkiyalik mutaxassislar tomonidan olib borilmoqda. Shu vaqtga qadar 60 ming fermer, 4 ming maxsus miroblar, ming nafar bank xodimi o‘qishga jalb qilindi. 84 tumanda 24,5 mingga yaqin tinglovchi o‘qitildi.

– Qishloq xo‘jaligida suvdan to‘g‘ri foydalanish, uni maydonlarga teng taqsimlash va hosildorlikni oshirishda eng yaxshi samara beradigan usul, bu – suv tejovchi texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi, – deydi turkiyalik mutaxassis Mavlud Ayden. – Bilasizmi, Turkiyada ham suv muammosi mavjud va aynan shuning uchun ham yurtimizda mana shunday texnikalardan bir necha yillardan beri foydalanib kelinadi. Asosiysi, bu usul allaqachon amaliyotda yaxshi natijalar bilan o‘zini oqlagan. Faqat buni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va qanday foydalanishni bilsangiz bas.

Xulosa

Biz faqatgina hozirgi kunni emas balki kelajagimiz bo‘lgan yoshlarimizning keying hayoti haqida ham qayg‘urmoqdamiz. Ularning farovon hayoti va salomatligi bizning asosiy maqsadimiz. Ommaviy axborot vositalarida ham suvni tejash bo‘yicha juda ko‘plab ma’lumotlar berib kelinmoqda. Barchamizni ogohlikka chaqirmoqda. Ichimlik suvi tanqisligini barchamiz birlashib harkat qilsakkina yengib o‘tishimiz mumkin. Kim qishloqda yashashi va kim shaharlarda iste’qomat qilishidan qat’iy nazar barchamiz shu yurtda yashaymiz va bir osmon ostida bir havodan nafas olamiz. Shunday ekan ushbu muammoni hal qilishda barchamiz oz bo‘lsada o‘z hissamizni qo‘shishimiz maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. UN-Water. Summary progress update 2021: SDG 6 – water and sanitation for all. https://www.unwater.org/sites/default/files/app/uploads/2021/12/SDG-6-Summary-Progress-Update-2021_Version-July-2021a.pdf
2. Avazbek XUDOYQULOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri Suv tanqisligining xavf oqibatlarini qanday yumshatish mumkin?